

**PROFESSOR TO‘RA NAFASOVNING “QASHQADARYO
QISHLOQNOMASI” KITOBIDAGI TOPONEGIZLAR TARKIBI
BO‘YICHA TASNIFI**

Sarvinoz Chariyeva,

Qarshi davlat universiteti

Lingvistika: o‘zbek tili mutaxassisligi

2- kurs magistranti

Annotatsiya. Maqolada joy nomlari tarkibidagi komponentlar: topoasos, topoformant, toponegizlarning o‘rni hamda Professor T. Nafasovning “Qashqadaryo qishloqnomasi” kitobidagi toponimlarning 4 xil toponegiz bo‘yicha tasnif qilinishi haqida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, maqolaga toponegizlar bo‘yicha statistik jadval ilova qilingan.

Kalit so‘zlar: toponim, komponent, topoasos, topoformantlar, toponegizlar, toponimik indikator, toponimik aniqlagichlar, indikator nomlanish va toponimlashuv jarayonlari

Toponimlar tadqiqi masalasi tilshunoslikdagi dolzarb masalalardandir. Toponimlarni tarkiban, tuzilish va etimologik jihatdan tahlil qilish murakkab jarayon hisoblanadi. Professor T. Nafasov toponimlarni tadqiq qilishda joy nomi tarkibidagi tashkil etuvchi komponentlarga alohida e’tibor qaratgan, bu komponentlar **topoformantlar yoki toponegizlar** deb ham ataladi.. Dastlab bu hodisa xususida rus va chet el olimlari ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. V.Toporov va O.Trubachevlar **topoasos va topoformantdan** shakllangan **toponegizlar** to‘g‘risida dastlabki ma’lumotni berishgan. V.N.Toporov nazariy toponomastikada toponegiz masalasiga ham qisqacha to‘xtalib, **topoformant, topoasos va toponegizni** maxsus izohlagan[1].

Topoasos + topoformant = toponegiz

Topoasos, topoformant, toponimik indikator, indikator nomlanish va toponimlashuv jarayonlari aynan yaqin jarayonlardir. Ularning hosilasi sifatida **toponegizlar** yuzaga keladi. Toponegiz terminiga S.A.Karimov va S.N.Bo‘riyevlar A.Xromovning “Tojikiston toponim va mikrotoponimlari bo‘yicha ocherklar” monografiyasidagi fikriga tayangan holda shunday aniqlik kiritadi: **“Toponimlar strukturasida toponegiz, topoformant, toponimik aniqlagichlar mavjud. “Toponegiz – bu topoformantlarni qo‘shish vositasida negizida toponimlar**

shakllanadigan har qanday leksik morfemadir". Toponegizlar, odatda, **tub soʻzdan va juda koʻp hollarda bir yoki ikki boʻgʻinli qurilmalardan** iborat boʻladi.

Toponimlarning vujudga kelishida tildagi oʻzak+qoʻshimcha=morfemaga teng keladigan **toponegiz+topoformant =toponegiz jarayoni** uzluksiz davom etib turadi. Quyida professor T. Nafasovning "Qashqadaryo qishloqnomasi" kitobida qoʻllangan **toponegizlar** haqida fikr bildiramiz. Topoformantlar tub soʻz boʻlishidan qatʼi nazar toponimlar etimologiyazatsiyasi davomida ularni ajratib tahlil etish zaruriyati paydo boʻladi. Zero, toponimik birlikni grammatik jihatdan oʻrganishning ahamiyati ham ana shunda" Toponegizlar majmuiga topoasos ham, topoformant ham, toponimik indikator (yaʼni geografik terminlar yoki toponimik aniqlagich) ham ishtirok etishi tabiiy holdir.

Toponegizlar shakllanishining leksik-semantik omillari orqali soʻzning ilk maʼnosi, keyingi maʼno taraqqiyoti va toponimni hosil qilishda qatnashadigan maxsus, yaʼni toponimik maʼnosi tushuniladi. Ularning leksik-semantik jihatdan qaysi va qanaqa obyektlarning nomi ekanligiga, shuningdek, kelib chiqishi hamda nomlanishiga koʻra tasniflanishi eng oʻrinli tasniflardan biridir[4].

Toponegizlar leksik, leksik- semantik va grammatik omillar asosida yuzaga kelishi maʼlum. Shu sababli bu omil muayyan toponimik oʻzgarishlarning lingvistik asosini belgilovchi til qonuniyatlarini hisoblanadi.

Toponegizlar shakllanishining grammatik omillari bandida topoformantning toponimlar shakllanishidagi roli aniqlangan. Toponim tarkibidagi soʻz va unga qoʻshiladigan qoʻshimchalar ushbu omillarda topoasos hamda topoformantlar vazifasini bajaradi. Shunga koʻra, ular quyidagi koʻrinishlarda toponimni hosil qiladi:

- 1) Asos koʻrinishidagi toponim (toponegiz)lar;
- 2) Asos + qoʻshimcha yoki asos +qoʻshimcha + qoʻshimcha koʻrinishidagi toponim (toponegiz)lar;
- 3) Asos + asos koʻrinishidagi toponim (toponegiz)lar;
- 4) Asos +asos+ qoʻshimcha yoki asos+asos+ asos shaklidagi toponim (toponegiz)lar.

Professor T. Nafasovning "Qashqadaryo qishloqnomasi"[4] kitobidagi toponimlarni yuqoridagi 4 guruh boʻyicha tasniflashga eʼtibor qaratamiz. Tasnif soʻngida statistik jadval asosida xulosalarni jamlaymiz.

1.Asos ko‘rinishidagi toponim (toponegiz)lar: Asarda qo‘llangan toponimlarni ko‘p qismi asosan ot va sifat so‘z turkumlariga tegishli. Masalan:

Shaxs oti	Narsa oti	Joy oti	Sifat
Abdi, Baqqol, Chig‘atoy, Chilangar, Hoji	Bayroq, Bayram, Terak, Tol,	Ariq, Jar, Dara,	Yomon, Kalta, Mayda, Obod,

2. Asos + qo‘shimcha yoki asos +qo‘shimcha + qo‘shimcha ko‘rinishidagi toponim (toponegiz)lar: Kitobda affikatsiya usulida yasalgan toponegizlar ham talaygina. Misol tariqasida: **-li** - Avoqli, Boyli, Bolg‘ali, Yong‘oqli; **-chi** - Ayoqchi, Ayronchi, Baqirchi, Bokurchi, Baydoqchi, Bo‘zchi, Davurchi; **-iston** - Bahoriston, Bog‘iston, Guliston; **-zor** – Bodomzor, Mevazor; **-mas** – Bo‘lmas; **-xo‘r** – Bo‘zaxo‘r, **-xona** – Govxona, Jo‘gixona, Jayraxona; **-lik** – Jizzalik, Do‘stlik kabi.

3. Asos + asos ko‘rinishidagi toponim (toponegiz)lar;

Asos	Asos	Kompozitsiyon toponegiz
Ot	Ot	Ot
Avaz	malik	Avazmalik
Sifat	Ot	Ot
Ala	qarg‘a	Alaqarg‘a
Son	Ot	Ot
Besh	ariq	Beshariq
Ot	sifat	Ot
Zafar	obod	Zafarobod

4.Asos + asos + qo‘shimcha yoki asos+asos+ asos shaklidagi toponim (toponegiz)lar. Kitobdagi ushbu shakldagi qishloq nomlariga misollar keltiramiz:

Asos-asos-qo‘shimcha	Asos-asos-asos
----------------------	----------------

Alaqo'yliq, Balqanqaychili, Otchopar, Ovulkiyikchi, Oytiymas, Musabozori, Qo'shtamg'ali, Quyioqboy...	Beshjombo'z, Beshchorbog', Jombo'zsaroy, Jombo'zsoy, Kattao'radaryo, Kichiko'radaryo, Kunchiqardarvoza, O'zbekfayzobod, Qorakultepa...
---	--

**“Qashqadaryo qishloqnomasi” kitobidagi
toponegiz(toponim)larning tarkibi bo'yicha statistik jadval**

Harflar	Asos ko'rinishidagi toponim (toponegiz)lar	Asos + qo'shimcha yoki asos + qo'shimcha ko'rinishidagi toponim (toponegiz)lar	Asos + asos ko'rinishidagi toponim (toponegiz)lar	Asos + asos + qo'shimcha yoki asos + asos + shaklidagi toponim (toponegiz)lar.
A	13	12	26	3
B	10	26	56	16
V	3	3	0	0
G	3	8	21	0
D	17	15	14	0
Ye	0	0	11	0
Yo	3	4	16	0
J	11	13	17	4
Z	5	7	12	0
I	2	4	6	2
Y	0	2	1	0
K	16	30	42	6
L	1	5	3	1
M	17	18	19	4
N	9	17	17	1
O	6	6	51	10

P	6	11	9	1
R	5	5	2	1
S	25	21	26	3
T	15	27	50	5
U	6	5	9	1
F	1	2	2	0
X	6	9	39	2
Ch	18	19	29	1
Sh	9	12	33	0
E	3	5	11	0
Yu	0	0	1	0
Ya	2	1	16	0
O'	2	13	12	2
Q	18	29	102	10
G'	7	8	2	0
H	4	1	7	0
Jami: 1326 ta	243	338	672	73

Yuqoridagi Qahqadaryodagi qishloq nomlari tarixiy omillar muayyan hududda yashayotgan xalqning xohish-irodasi va inon-ixtiyori bilan toponimlar o'zgartirildi, hudud uchun eng munosiblari o'z o'rnida qoldirildi, ba'zilari esa qayta nomlandi. Toponimlar nomi tarixiy davrlarga bog'liq holda shakllanadi. Bu davrda ko'plab urug'larning nomlari qishloq nomlariga o'tganini ko'rishimiz mumkin. Bu shu hududlarda shu urug' vakillari yashayotganidan dalolat beradi. Toponegizlarning yuzaga kelishida geografik omillar eng faol bo'lib, ular tabiiy geografik muhit va shart sharoitga bog'liq bo'ladi. Geografik omillarni ifodalaydigan so'zlar toponimlarda indikator ko'rinishidagi atamalar sifatida qo'llaniladi. Masalan, balandlikka oid joy nomlarida tog', qir, tepa kabi indikatorlar uchraydi: Oqtog', Uchqurtog', Teshiktog', Avliyotepa va boshqalar.

Toponimlardagi toponegiz masalasi nomshunoslikning, shu jumladan, O'zbek nomshunosligi hamda toponimikasining hal qilinishi lozim bo'lgan markaziy muammolaridan biridir. Chunki hozirgacha toponimlar bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlardagi sezilayotgan kamchilik, nuqsonlar, soxtaliklarga asos deb quyidagilarni ko'rsatish mumkin: 1) ma'lum ma'noda mamlakatimiz toponimlari misolida bahsli va murakkab bo'lgan masalalarga, xususan, toponegiz masalasiga jiddiy e'tibor bermaganligi; 2) ayni shu masalani oydinlashtiradigan tadqiqotlarning yuzaga kelmaganligidir.

Toponegiz so'zlardagi negiz tushunchasidan farq qilgan holda toponim(lar)ning shakllanishiga asos bo'luvchi vosita sanaladi. Demak, negiz termini umuman grammatikada faol qo'llangani uchun umumiylikni anglatadigan bo'lsa, toponegiz termini (tushunchasi ham) esa alohidalikni, ya'ni xususiylikni ifodalaydi. Toponegiz terminini izohlashda o'zbek nomshunosligida toponimlashuv hodisasining o'rnini alohida ahamiyatga egadir.

Professor T. Nafasovning toponimlar bo'yicha tadqiqotlari tilshunosligimizda betakror hodisadir. Olimning toponegiz tarkibidagi komponentlar bo'yicha tahlillari tahsinga sazovordir. Kelgusi ishlarimizda toponimlarni ma'lum komponentlarga ajratish bo'yicha izlanishlarni davom ettiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дусимов З, Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли лугати. - Т. 1977.- Б.144.
2. Эназаров Т. Шахрисабз ҳудуди жой номларининг тарихий-қийсий тадқиқи. Филол. фан. номз. ...дисс. автореф.- Т.,1993. –Б.10-12.
3. Каримов С.А., Бўриев С.Н. Ўзбек топонимикаси тараққиёт босқичида. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 26.
4. Nafasov T., Nafasova V. O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati - Toshkent "Yangi asr avlodi" 2007.- B. 46.
5. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. Муҳаррир. Т: 2009. 431.
6. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – B.156.
7. Топоров В.Н., Трубачев О.Н. Лингвистический анализ гидронимов Верхнего Поднепровья.– М.,1962. –Б. 268